

O'ZBEK TILI – MILLIY O'ZLIGIMIZ VA MUSTAQIL
DAVLATCHILIGIMIZ TIMSOLI

Nuraddinova Oydin Rasul qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

oydinnuraddinovarasulqizi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyodagi eng qadimiy tillardan biri bo'lgan, bebaho boyligimiz o'zbek tilining milliy o'zligimiz va davlatimizning mustaqil davlat sifatida shakllanishidagi o'rni, shu bilan birga, o'zbek tilining dunyo tillari orasidagi mavqeyi haqida so'z yuritiladi. Ushbu maqola o'zbek tilini dunyoga keng targ'ib qilish va uning dunyo tillari miqyosidagi o'rnini yuksaltirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, davlat tili, bebaho boylik, mustaqillik, milliy g'urur, ona tili, kelajak, o'tmish, ajdodlar merosi, sharaflı burch.

Аннотация: В данной статье рассматриваются бесценные богатство одного из древнейших языков мира роль узбекского языка в формировании идентичности нашей нации нашего государства, а также место узбекского языка среди языков мира. Цель данной статьи- широкая популяризация узбекского языка в мире и укрепление позиций среди мировых языков.

Ключевые слова: узбекский язык, государственный язык, бесценные богатство, независимость, национальная гордость, родной язык, будущее, прошлое, наследие предков, почетный долг.

Abstract: This article discusses the invaluable of one of the most ancient languages in the world, the role of the Uzbek language in the formation of the identity of our nation and our state as an independent state, as well as the position of the Uzbek language among the world's languages. This article is aimed at widely promoting the Uzbek language to world and increasing its position among world languages.

Keywords: the Uzbek language, state language, invaluable wealth, independence, national pride, native language, future, past, ancestral heritage, honorable duty.

Til Yaratganning insonga bergan bebaho ne'matlaridan biri bo'lib, u insonlar uchun eng muhim o'zaro aloqa vositasidir. Til ona allasi orqali kirib, insonning ruhiyatiga milliylikni singdiradi. Til millatning ko'zgusi bo'lib, millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy omildir. Har bir xalq uchun o'z tili qadrli va muqaddasdir. Ona tili millatning ruhidir. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, qadrlash – millatning yuksalishi demak:

Bobolardan bizga meros ezgu til,

Avlodlarga xazinayi bebaho.

*Qalbimizga, ruhimizga ko'zgu til
Bu dunyoga bag'ishlamish ne daho.*

Buyuk bobokalonlarimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi eng qadimiy tillardan biridir. Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. 1989-yil 21-oktabr sanasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Bu kunni davlat tili bayrami sifatida har yili turli shiorlar ostida rasmiy tarzda nishonlaymiz. Bu yil o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi nishonlandi. O'zbek tili dunyodagi eng boy tillardan biridir. Ona tilimiz asrlar osha sayqallanib, yuksak darajada ulug'lanib kelgan. Jumladan, o'zbek tilida ma'rifatparvar allomalarimiz tomonidan jahon ahlini lol qoldirgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan nodir ma'naviy xazina – ulkan asarlar yaratilgan.

Tilshunos olimlarning ta'kidlashicha, bundan bir necha yillar oldin dunyoda 9000 ga yaqin til bo'lgan. Eng so'nggi statistik ma'lumotlarda esa 6000 ta, ba'zilarida esa 5600 ta til borligi qayd etilgan. Shulardan 200 tasigina davlat tili maqomiga ega. Ularning orasida o'zbek tilining borligi ona tilimizning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligining yaqqol isbotidir. Bugungi kunda o'zbek tili Buyuk Britaniya, AQSh, Turkiya va shu kabi bir qator davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o'rganilmoqda.

Milliy g'ururi yuksak bo'lgan har bir inson o'z tilini asrab-avaylaydi, uning nufuzi va mavqeyini oshirishga harakat qiladi.

Milliy g'ururi so'ngan yoki sust millatning esa kelajagi bo'lmaydi.

Bizni yorug' kunlargacha yetkazgan, an'analarimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, o'tmishimizni, ajdodlarimiz meroslarini asrlar silsilasidan olib buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti tili va adabiyotidadur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Foydalanilgan manbalar:

1. "Xalq so'zi" gazetasining rasmiy sayti (<https://xs.uz>)
2. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining rasmiy sahifasi (<https://tsuo.uz>)
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligining rasmiy sahifasi (<https://uza.uz>)
4. Rasmiy ilmiy sayt (<https://yuz.uz>)

5. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi veb-sayti (<https://www.insonhuquqlari.uz>)
6. Shaxlo Maxmudova. [Standart til birliklarini o'rgatishda talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish](#). 2025/1/30. Журнал TAMADDUN NURI JURNALI. Том-1.Номер-64. Страницы.94-97.
7. Худайклова Ф.Х. Родительский комитет в школе. Ташкент. УЗ. НИИПН. 2011г.
8. Худайкулова Ф.Х. Инклюзивное образование и толерантность в образовательной среде: контроль знаний. Конференция -2025.10.22.Стр.258-262
11. Худайкулова Ф.Х. Работа родительского комитета в школе. Журнал. Начальная школа, 2011. №9. Стр.98.
12. Feruza Xudayqulova. Проблемы и применение технологии преподавания.Журнал. Modern Science and Research. Том-3. Номер-1. Стр.1-5. 2024/1/12.
13. Shaxlo Maxmudova. Standart til birliklarini o'rgatishda talabalarning o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish. 2025/1/30. Журнал TAMADDUN NURI JURNALI. Том-1.Номер-64. Страницы.94-97.
14. Махмудова Ш.М. Distance learning for part-time educators: technologies and methods, advantages and disadvantages (<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27971>). Modern Science and Research. Том-3 №-1 стр. 1-3.
15. Худайклова Ф.Х. Родительский комитет в школе. Ташкент. УЗ. НИИПН. 2011г.
16. Худайкулова Ф.Х. Методы обучения русскому языку национальных группах. Наука и инновационные идеи в мире, 2024. Т.39. Номер-2. Стр.50-54.
17. Худайкулова Ф.Х. Работа родительского комитета в школе. Журнал. Начальная школа, 2011. №9. Стр.98.
18. Khudaykulova Feruza Kholovna. Aspects of contact; Russian -Turkish language Журнал central Asian journal of multidisciplinary research and management. Номер- 1. Стр.186-19. 2024г.
19. Махмудова Ш.М. Дистанционное обучение для преподавателей-заочников: технологии и методы, преимущества и недостатки. Журнал «Современная наука и исследования». 11.01.2024. №1. С.1-3.
20. Maxmudova Shaxlo Mizrobovna. Benefits of incorporating common phrases among learners in non-linguistic educational settings. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12,23 American Academic publishers, volume 05, issue 10,2025.
21. Худайкулова Ф.Х. Новые образовательные технологии на уроках русского языка и литературы как средство повышения эффективности обучения: 101-105.ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-

методический журнал.2022

22. Худайкулова Ф.Х. Использование цифровых технологий на занятия русского языка как средство повышения учебной мотивации и качества обучения. Журнал «Лучшие интеллектуальные исследования». 2026/1/9. Том-60. №-2.Стр.46-49.
23. Maxmudova Shaxlo Mizrobovna. A mechanism of using standard english language units in andragogic approaches 2025/1/16 Журнал International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Стр. 67-71
24. Maxmudova Shaxlo Mizrobovna Rules for constructing a standard sentences in the English language and its formation. 2024/1/24. Журнал. Лучшие интеллектуальные исследование. Том-2.Страницы .60-63.
25. Maxmudova Shaxlo Mizrobovna.Nofilolog yo`nalishidagi talabalarning ingliz tilida tinglab tushunish ko`nikmasini rivojlantirishda zamonaviy metodlarning samaradorligi. 2023/1. Журнал. Образование наука и инновационные идеи в мире.Том-1. Стр.77-81.
26. Худайкулова Ф.Х. Отличия и проблемы технологии преподавания. Журнал. Лучшие Интеллектуальные Исследования. Международный научный электронный журнал Том-1.Страницы.10-19